

MUSIQA DARSLARIDA XOR JAMOALARINI TASHKIL ETISH

Zahiriddinova Nigina

Andijon davlat pedagogika instituti

Magistratura bo'limi "Musika ta'limi va
san'at" yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada musiqa ta'limining o'quvchilar estetik didi va ijodiy fikrlashini rivojlantirishdagi o'rni hamda xor jamoasining ahamiyati yoritilgan. Xor jamoasi bolalarda jamoaviylik, uyg'unlikda kuylash va sahnaviy madaniyatni shakllantiruvchi muhim vosita sifatida talqin etiladi.

Abstract: This article highlights the role of music education in developing students' aesthetic taste and creative thinking, as well as the importance of the choir group. The choir is interpreted as an important means of fostering a sense of teamwork, harmonious singing, and stage culture among children.

Kalit so'zlari: xor, xor jamoasi, o'quvchilar, musiqiy eshtish, intonatsiya, emotsional holat, tahlil metodi, takrorlash metodi, his qilish, ijodiy fikrlash.

Keywords: choir, choir group, students, musical hearing, intonation, emotional state, analytical method, repetition method, feeling, creative thinking.

Musiqa ta'limining asosiy maqsadi o'quvchilarda estetik didni, musiqiy eshituvni, ritmni va ijodiy fikrlashni shakllantirishdan iboratdir. Shu jarayonda xor jamoasining o'rni beqiyosdir. Xor jamoasi bolalarda jamoaviylik, bir-birini tinglash, uyg'unlikda ijro etish kabi muhim sifatlarni tarbiyalaydi.

"Xor – yunoncha «choros» — yig'ilish, to'da ma'nosini bildirib, birlashgan jamoa sifatida turli

inson ovozlari bilan tashkil topadi. Xorlar asosan ikki turga bo'linadi:

– Bir turdagi xorlar;

– Aralash xorlar.

Bir turdagi xorlarga – bolalar xori (soprano yoki diskant va alt ovozlari), ayollar xori (soprano va alt ovozlari), erkaklar xori (tenor va bas ovozlari) kiradi. Aralash xorga esa – ayollar va erkaklardan tuzilgan xorlar (soprano, alt, tenor va bas) kiradi"¹.

"Xavaskorlik xorini tashkil qilish, asosan, ikki davrga bo'linadi.

Birinchi davrga, xavaskorlik xor jamoaini tashkil qilish uchun bajariladigan barcha tayyorgarlik ishlari kiradi.

¹ G.Mansurova "Xorshunoslik va xor jamoalari bilan ishlash uslubiyoti" Toshkent, "Yangi nashr" 2008

Ikkinchi davrga, rahbarning xor bilan birinchi uchrashuvi, xonandalarning vokal, musiqiy qobiliyatlarini tekshirish va ovozlarni aniqlay borish, xor partiyalarini butlash ishlari kiradi.

Mana shu ishlarning hammasi xor tuzishning tashkiliy davri hisoblanadi.

Xor rahbari o'z atrofidagi aktivlar bilan xor tashkil qilish uchun keng agitatsiya ishlari olib bormog'i lozim. bu ishda barcha agitatsiya vositalaridan keng foydalaniladi"².

Xor jamoasini tashkil etishning maqsadi va vazifalari

Maktab yoki maktabgacha ta'lim muassasalarida xor jamoasi tashkil etishning asosiy maqsadi — bolalarni musiqani sevishtga, birgalikda kuylash madaniyatiga va badiiy-estetik qadriyatlarni anglashga o'rgatishdir.

Xor jamoasining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- musiqiy eshitish va intonatsiyani rivojlantirish;
- jamoada kuylash madaniyatini shakllantirish;
- sahnada o'zini tutish ko'nikmalarini rivojlantirish;
- ijodiy ifoda va emotsional holatni mustahkamlash.

Xor jamoasini shakllantirish bosqichlari

- Xor jamoasini tashkil etishda o'qituvchi quyidagi bosqichlarga e'tibor qaratadi:
- O'quvchilar ovoz diapazonini aniqlash;
- Guruhni ovoz turlariga (soprano, alto, tenor, bas) ajratish;
- Repertuar tanlash — bolalarning yoshiga, ovoz imkoniyatiga va qiziqishlariga mos qo'shiqlarni tanlash;
- Mashg'ulotlarni muntazam o'tkazish va intonatsion aniqlik ustida ishlash.

Xor mashg'ulotlarining o'qitish metodikasi

- Xor mashg'ulotlarida quyidagi metodlardan foydalanish samarali hisoblanadi:
- Tinglash va takrorlash metodi – o'qituvchi kuyni ijro etib beradi, bolalar takrorlaydilar.
- Tahlil metodi – asar mazmuni, kayfiyati va xarakteri haqida suhbat o'tkaziladi.
- Amaliy mashq metodi – nafas olish, diksiya, artikulyatsiya va ovoz chiqarish mashqlari.
- O'qituvchi mashg'ulot davomida bolalarning ovozini zo'riqtirmaslik, har bir bolaning ishtirokini ta'minlash va ijobiy muhit yaratishga alohida e'tibor qaratadi.

Xor jamoasining tarbiyaviy ahamiyati

- Xor jamoasida ishtirok etish o'quvchilarda:
- o'zaro hurmat, mehr-oqibat va birdamlik tuyg'usini kuchaytiradi;
- sahnaviy madaniyatni shakllantiradi;
- milliy va jahon musiqiy merosiga hurmatni oshiradi;

² Xodjayev X.O. "XOR VA XORSHUNOSLIK" Andijon-2023

- estetik zavq va musiqiy tafakkurni rivojlantiradi.

O'quvchilarni xorda kuylashga o'rgatishning shakl, vosita va usullari haqida fikr yuritar ekanmiz, shuni ham ta'kidlab o'tishimiz kerakki, hech qachon inson mukammal qo'shiq aytishga moyil bo'lib tug'ilmaydi. Albatta, bu qanchadir muddat davomida shakllanib, rivojlanib boradi. Bunda esa umumta'lim maktablarining musiqa darslari ta'limoti katta ahamiyatga ega. Shunday ekan, birinchi sinfdan boshlab har bir o'quvchining ovoz apparati pog'onama-pog'ona shakllanib, rivojlanib boradi. Nihoyat, yettinchi sinfda mukammal vokal-xor malaka va ko'nikmaga ega bo'lgan o'quvchilarga ega bo'lishimiz mumkin. Albatta, bunday yutuqqa erishish uchun shunga yarasha mehnat talab etilishini unutmashimiz kerak.

Musiqa darslarida xor jamoasini tashkil etish – bu nafaqat o'quvchilarning musiqiy eshituvini, ritm va intonatsiya hislarini rivojlantirish, balki ularning ma'naviy-axloqiy dunyosini boyitish, jamoaviylik va estetik didni shakllantirishning muhim vositasidir. Xor mashg'ulotlari jarayonida bolalar birgalikda kuylash, bir-birini tinglash, uyg'unlikni his etish va jamoa a'zosi sifatida harakat qilishni o'rganadilar.

Bunday mashg'ulotlar o'quvchilarda sahnada o'zini erkin tutish, mas'uliyatni his qilish, ijodiy fikrlash va badiiy ifoda ko'nikmalarini shakllantiradi. Shu bilan birga, xor jamoasi bolalarda musiqaga mehr uyg'otadi, milliy va jahon musiqiy merosini chuqurroq anglashga yordam beradi.

Shu sababli har bir musiqa o'qituvchisi xor mashg'ulotlarini dars jarayoniga puxta reja asosida kiritishi, o'quvchilarning yosh xususiyatlari va ovoz imkoniyatlarini inobatga olgan holda tashkil etishi lozim. Xor faoliyatini to'g'ri yo'lga qo'yish o'quvchilarning musiqiy salohiyatini ochib berish, ularni jamoaviy ijod va san'atga muhabbat ruhida tarbiyalashda katta ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G.Mansurova “Xorshunoslik va xor jamoalari bilan ishlash uslubiyoti” Toshkent, “Yangi nashr” 2008
2. Xodjayev X.O. “XOR VA XORSHUNOSLIK” Andijon-2023
3. Xolmatova S. “Xor sinfida ko'p ovozli kuylashga o'rgatish metodikasi” Guliston -2012
4. Jo'rayev, A. “Maktabda musiqa o'qitish metodikasi.” – Toshkent: Fan, 2019